

**МАКТАБГАЧА ТА’ЛИМ ТАШКИЛОТИДА УСЛУБЧИ ВА  
ТАРБИЯЧИЛАРНИНГ ГАМКОРЛИК МУНОСАБАТЛАРИ**

Mamataliyeva Mahbuba Abduvoris qizi

*University of Business and Science nodavlat oliy ta’lim muassasasi o‘qituvchisi.*

**Annotatsiya:** Maqolada Maktabgacha ta’lim tashkiloti xodimlari o‘rtasidagi munosabatlar o‘zaro hamkorlik, bolaning shaxsini hurmat qilish va unga shaxsiy xususiyatlariga muvofiq rivojlanishi uchun erkinlik berish. Shuningdek, maqolada Maktabgacha ta’lim tashkilotida ta’lim-tarbiya ishlarini talab darajasida amalga oshirish, tarbiyachilarda mehnat intizomiga qa’tiy amal qilish ko‘nikmasini, bir-birining kamchiliklariga tanqidiy munosabatni shakllantirish, mexnat va ijodiy faolligini oshirish orqali ish samaradorligini ko‘tarish, qabul qilinadigan qarorlarning o‘z vaqtida va sifatli bajarilishini ta’minalash uslubchidan yuksak bilim va malaka, tarbiyachilar bilan ularning ruhiyatini inobatga olgan xolda ishlash saloxiyati, katta tajriba xamda ko‘plab ma’nnaviy fazilatlar sohibi bo‘lish to‘g‘risida so‘z yuritiladi.

**Tayanch so‘zlar:** Maktabgacha ta’lim tashkiloti, uslubchi, tarbiyachi, tarbiyalanuvchi, ta’lim, tarbiya, hamkorlik, munosabat, rivojlanish.

**СОТРУДНИЧЕСКИЕ ОТНОШЕНИЯ УЧИТЕЛЕЙ И УЧИТЕЛЕЙ В  
ОРГАНИЗАЦИИ ДОШКОЛЬНОГО ОБРАЗОВАНИЯ**

**Аннотация:** В статье отношения между работниками дошкольной образовательной организации представляют собой взаимное сотрудничество, уважающее личность ребенка и предоставляющее ему свободу развиваться согласно его личностным особенностям. Также в статье реализация воспитательной работы на уровне востребованности в дошкольной образовательной организации, формирование у воспитателей навыков строгого соблюдения трудовой дисциплины, формирование критического отношения к недостаткам друг друга, повышение успеваемости. эффективность работы за счет повышения трудолюбия и творческой активности, обеспечения своевременного и качественного выполнения решений, вопрос о высоких знаниях и навыках тренера, умении работать с педагогами с учетом их духа, большого опыта и многие духовные качества сохраняются.

**Ключевые слова:** Организация дошкольного образования, методист, воспитатель, воспитанник, воспитание, воспитание, сотрудничество, взаимоотношения, развитие.

**COOPERATIVE RELATIONS OF TEACHERS AND TEACHERS IN THE  
ORGANIZATION OF PRESCHOOL EDUCATION.**

**Abstract:** In the article, the relationship between the employees of the preschool educational organization is mutual cooperation, respecting the child's personality and giving him the freedom to develop according to his personal characteristics. Also, in the article, the implementation of educational work at the level of demand in the preschool educational organization, the formation of the skills of strict adherence to labor discipline in educators, the formation of a critical attitude to each other's shortcomings, the increase of work efficiency by increasing hard work and creative activity, To ensure the timely and high-quality implementation of the decisions, a question about the high knowledge and skills of the trainer, the ability to work with educators taking into account their spirit, great experience and many spiritual qualities z is maintained.

**Key words:** Preschool education organization, methodologist, educator, student, education, education, cooperation, relationship, development.

Davlatimizda maktabgacha ta'lim sohasini isloq qilish bo'yicha qisqa davr ichida huquqiy baza yaratilib, sohaning rivojlanishiga shart-sharoitlar hamda barkamol avlodni tarbiyalash uchun, eng avvalo, qulay tashkiliy-huquqiy sharoitlar yaratildi. Maktabgacha ta'lim va tarbiyani tashkil etish tartibi ushbu Qonun, shuningdek "Maktabgacha ta'lim va tarbiya to'g'risida" O'zbekiston Respublikasi Qonuni bilan belgilanishi mustahkamlab qo'yilgan.

Maktabgacha ta'lim va tarbiya to'g'risidagi qonunda maktabgacha ta'lim va tarbiya sohasidagi davlat siyosatining asosiy yo'nalishlari qilib, har bir bolaning maktabgacha ta'lim va tarbiya olishiga bo'lgan huquqini amalga oshirilishini ta'minlash, bolalarning maktabgacha ta'lim va tarbiyaga to'liq qamrab olinishini ta'minlash uchun shart-sharoitlar yaratish, bolaning rivojlanishida, maktabgacha ta'lim va tarbiya olishida oilaga har tomonlama yordam ko'rsatish, bolalarning, shu jumladan alohida ta'lim olish ehtiyojlari bo'lgan bolalarning sifatli maktabgacha ta'lim va tarbiya olishi uchun shart-sharoitlar yaratish, ta'lim va tarbiya berishning muqobil shakllarini yaratish hamda rivojlantirish, maktabgacha ta'lim va tarbiyani rivojlantirishni davlat tomonidan qo'llab-quvvatlash, maktabgacha ta'lim tashkilotlari tarmog'ini kengaytirishga qaratilgan davlat-xususiy sheriklik mexanizmlarini joriy etish va rivojlantirish, maktabgacha bo'lgan yoshdag'i bolalarni har tomonlama rivojlantirish maqsadida zamonaviy innovatsion va axborot-kommunikatsiya texnologiyalarini joriy etish, xalqaro hamkorlikni rivojlantirish belgilangan, ushbu qonundan kelib chiqib sohada olib borilayotgan ishlar bir muncha tizimda sezilarli darajada o'zgarishlarga sabab bo'lmoqda. Maktabgacha ta'lim tashkilotlarida uzlusiz ta'lim tizimining samarali faoliyat ko'rsatishi, eng avvalo, yuksak malakali rahbar kadrlar faoliyati bilan belgilanadi. Shu boisdan, maktabgacha ta'limning pedagogik jamoasini boshqarish, ta'limning yuqori ko'rsatkichlariga erishib borishda ta'lim

tashkilotlari rahbarlaridan “boshqaruv” malakalariga ega bo‘lib borishni talab qiladi.

Maktabgacha ta’lim tashkilotlarida olib borilayotgan ta’lim-tarbiya va metodik ishlarni zamon talablari darajasida yangicha yondashgan holda tashkil etish hamda hujjatlar yuritilishida ta’lim mazmuni samaradorligini oshirishga qaratilganligini ta’minlashdan iborat.

Hamkorlik deganda ikkala tomonning ham huquq va majburiyatlari mavjud bo‘lib, bir-birlarini layoqatlil deb bilishlari va bir-birlarini sherik sifatida qadrlashlari nazarda tutiladi. Hamkorlik pedagog bilan ishlaydigan oila va jamoa qadriyatlari, turmush tarzi, o‘ziga xos xususiyatlarini tan olish va ularni qadrlashi, shuningdek, bolalarning o‘qishi va rivojlanishiga hissa qo‘sadigan ko‘plab muhim usullarni qadrlashlarini talab qiladi. Maktabgacha yoshdagi bolalar bilan ishlaydigan pedagoglar farzandlar oilada va jamoada nimalarni o‘rganayotganiga tayanib, ta’lim olish imkoniyatlarini kengaytiradi.

O‘quv yili boshida maktabgacha ta’lim tashkiloti rahbari tomonidan tashkilotning barcha pedagog xodimlari ushbu qo‘llanma bilan tanishtiriladi. Ushbu ish hujjatlar bilan tanishgan har bir pedagoglar mazkur qo‘llanmaga amal qilishi va me’yoriy metodik hujjatlarni yuritishga mas’ul hisoblanadi. Maktabgacha ta’lim tashkiloti tashkil etilishi bolalarning sog‘lom o‘sishi va tarbiya olishlari uchun shart-sharoitlar bo‘lishi, bino va inshootlar yong‘in xavfsizligi hamda sanitariya-epidemiologiya xizmatining sanitariya qoidalari, normalari va gigiyena normativlariga mos bo‘lishi lozim. Maktabgacha ta’lim tashkilotida bolalarning ovqatlanishi O‘zbekiston Respublikasi Sog‘liqni saqlash vazirligi tomonidan tasdiqlangan sanitariya qoidalari, normalari va gigiyena normativlari asosida amalga oshiriladi. Maktabgacha ta’lim tashkilotida bolalar, ota-onalar yoki ularning o‘rnini bosuvchi shaxslar, pedagog xodimlar ta’lim-tarbiya jarayonining qatnashchilari hisoblanadi. Maktabgacha ta’lim tashkiloti bolalarni qabul qilishda ota-onalarni o‘z ustavi, kun tartibi, ta’lim-tarbiya dasturlari va boshqa hujjatlar bilan tanishtirishi shart. Maktabgacha ta’lim tashkiloti bilan ota-onalar o‘rtasidagi o‘zaro munosabatlar ushbu tashkilotning ustavi hamda shartnomaga bilan tartibga solinadi. Ota-onalar bilan tuzilgan shartnomaga bolalarning ushbu tashkilotda bo‘lish vaqtini, ta’lim-tarbiya jarayonini tashkil etishda tomonlarning huquqlari, majburiyatlari hamda javobgarligini o‘z ichiga oladi.

Maktabgacha ta’lim tashkilotlarining oilalar bilan o‘zaro hamkorlik aloqalarini o‘rnatish zaruriyati hozirgi paytda dolzarb bo‘lib qolmoqda. Olib borilgan ilmiy izlanish va tajribalar shuni ko‘rsatadiki, MTT pedagoglari, va oilalar o‘rtasidagi kuchli hamkorlik bolalarning rivojlanishi va ta’lim olishiga ijobjiy hissa qo‘sadi. Shaxsga yo‘naltirilgan ta’lim ushbu hamkorlikni maktabgacha ta’lim tashkilotlarida berilayotgan ta’limni kuchaytirish va kengaytirish, shuningdek, uyda va jamiyatda sodir bo‘layotgan qiziqish va ta’limni rivojlantirish uchun zarur degan ishonchga asoslanadi.

Bolaning har tomonlama rivojlanishini ta’minlash uchun maktabgacha ta’lim tashkiloti ota-onalar bilan o‘zaro hamkorlikning quyidagi shakllarini tashkil qilishi belgilangan.

- ota-onalarning maktabgacha ta’lim tashkiloti borasidagi fikrlarini hisobga olish;

- ilk rivojlanish masalalarida ota-onalarga bilim berish;
- ota-onalarni o‘quv-tarbiyaviy jarayonda faol qatnashishga jalg etish;
- ota-onalarning tashkilot hayotida ishtirok etish borasidagi tashabbuslarini qo‘llab-quvvatlash.

Maktabgacha ta’lim tashkiloti uslubchisining ta’lim-tarbiyaviy faoliyatining samaradorligi uning obro’si ko‘p jihatdan pedagoglar jamoaning jipslashganligiga, eng avvalo butun maktabgacha muassasa rahbar yadrosida birlik va o‘zaro tushunishning mavjudligiga bog‘liq bo‘ladi. Tarbiyachilarning aniq intizomi va ishda uyushqoqligini ta’minalash, kollektivda jamoatchilik fikrini, tarbiyachilarning bir-birlarining kamchiliklariga tanqidiy munosabatini shakllantirish, mehnat faolligi va ijodiy ishlash ehtiyojini rag‘batlantirish, qabul qilingan qarorlar yechimini ta’minalash kabi sotsial-psixologik masalalarini hal qilish uslubchi uchun birmuncha murakkablik qiladi. Har bir yosh mutaxassis ishini endi boshlayotgan yosh tarbiyachi konsultatsiyalar olib turishi uchun unga tajribaliroq murabbiy va obro‘liroq tarbiyachini biriktirish lozim.

Bundan tashqari, sohadagi muammolarni birgalikda o‘rganib o‘quv qo‘lanmalar, mashg‘ulot ishlanmalar, uslubiy ko‘rsatma va tavsiyalar berib boradilar. Pedagoglar bilan o‘zaro hamkorlik ish rejasi mutaxassislar orasida o‘zaro yuritilib, bir-birlarini to‘ldirishga qaratilgan. Ya’ni, tarbiyachi tashkilotda faoliyat yuritayotgan pedagoglar, ota-onalar, bolalar hamda xodimlar uchun turli xildagi tavsiya, mahorat maktablari, trening mashg‘ulotlari, faoliyatlar davomida uchrashi mumkin bo‘lgan noxush holatlarning oldini olish, ishlash uchun qulay sharoit yaratish bo‘yicha bir yillik reja tuziladi. Bundan tashqari, uslubchi xamkasblarining xurmatini qozonish va ularga o‘z vazifalarini muvaffaqiyatli bajarishlarida yordam berish uchun muayyan rahbarlik salohiyatiga xam ega bo‘lishi lozim. U nafaqat puxta nazariy tayyorgarlikka, balki bilim va tajribalarini amalda qo‘llash ko‘nikmasiga ham ega bo‘lishi zarur. Tajribali uslubchi tashabbuskorligi va ishga ijodiy yondashish g‘oyalarini umumlashtira bilishi, anik, maqsadni ko‘zlab faoliyat yuritishi, xar bir tarbiyachining imkoniyat va qobiliyatlarini e’tiborga olishi bilan ajralib turadi. Maktabgacha ta’lim tashkiloti uslubchisining ta’lim-tarbiya yo‘nalishidagi faoliyatining samaradorligi, uning obru-e’tibori ko‘p jihatdan pedagoglar jamoasi, eng avvalo, muassasa rahbariyatining jipsligi, uyushqoqligi va bir yoqadan bosh chiqarib faoliyat yuritashiga javobgardir.

Maktabgacha ta’lim tashkilotida ta’lim-tarbiya ishlarini talab darajasida amalgalashirish, tarbiyachilarda mehnat intizomiga qa’tiy amal qilish ko‘nikmasini, bir-birining kamchiliklariga tanqidiy munosabatni shakllantirish, mehnat va ijodiy faolligini oshirish orqali ish samaradorligini ko‘tarish, qabul qilinadigan qarorlarning o‘z vaqtida va sifatli bajarilishini ta’minalash uslubchidan yuksak bilim va malaka, tarbiyachilar bilan ularning ruhiyatini inobatga olgan xolda ishlash saloxiyati, katta tajriba xamda ko‘plab ma’naviy fazilatlar sohibi bo‘lishni talab etadi. hozirgi zamon tarbiyachisining asosiy fazilatlaridan biri o‘z kasbiga sadoqatliligi, g‘oyaviy e’tiqodliligi o‘z kasbini sevishi va bu kasbga bo‘lgan cheksiz sadoqati o‘qituvchi - tarbiyachi boshqa kasb egalaridan ajratib turadi. Pedagog-

tarbiyachi shaxsiga qo'yiladigan muhim talablaridan biri shuki, u o'z predmetini, uning metodikasini chuqur o'zlashtirgan bo'lishi zarur.

Bu pedagog-tarbiyachining obro'sini ko'taradi. Tarbiyachi kasbiga xos bo'lgan muhim fazilatlaridan, talablaridan biri bolalarni sevish ularning hayoti bilan qiziqish har bir shaxsni hurmat qilishdan iborat. Bolani sevgan butun kuch va bilimini bolalarni kelajagi buyuk vatanga sodiq fuqaro qilib tarbiyalashga safarbar qila oladigan odamgina haqiqiy tarbiyachi-pedagog bo'la oladi. Bolalarni sevish - pedagogning murakkab mehnatini jozibali va yengil qiladi. Tarbiyachining bolalarga munosabati pedagogikada tarbiyalanuvchi shaxsga hurmat, unga talabchanlik bilan bir qatorda turadi. Bu munosabat bolada pedagogga nisbatan ishonchni uyg'otadi, o'qituvchiga bolalarni chinakam ma'naviy murabbiysi bo'lishga imkon beradi. Pedagog faoliyatining muvaffaqiyatli pedagogik qobiliyatlarining mavjudligiga ham bog'liqdir.

Pedagogik qobiliyat – pedagogik mahoratga erishishning zaminidir. Pedagogik qobiliyat tarkibiga: pedagogik kuzatuvchanlik, pedagogik tasavvur, diqqatni taqsimlash, tashkilotchilik qobiliyati va pedagogik muomila kiradi. Pedagogik qobiliyatlar pedagogik faoliyati jarayonida, shuningdek, uni bu faoliyatga tayyorlash jarayonida shakllanadi. Pedagogik mahorat - bu yosh avlodga ta'lim-tarbiya berishni yuksak darajada va doimiy ravishda takomillashtirib borish san'atidir. Tarbiyachi mактабгача yoshidagi bolalarga tabiat, jamiyat hodisalari, kattalarning mehnati haqida boshlang'ich bilim va tushunchalar beradi, ularga madaniy axloq, o'z tengdoshlari va kattalar bilan madaniyatli manosabatda bo'lish odatlarini singdiradi, yaxshilik, haqiqatgo'ylik,adolat, jasurlik, kamtarinlik, kattalarga hurmat bilan qarash, tabiatga qiziqish, kuzatuvchanlik, o'simlik va hayvonlarga g'amxo'rlik bilan qarash, mehnatsevarlik, kattalar mehnati natijalarini asrab-avaylash kabi axlociy sifatlar tarbiyalaydi.

### XULOSA

qilib shuni ta'kidlash lozimki, biz intilayotgan natijada mактабгача tarbiyachilarining yangi ta'lim standartlarini joriy etishga ongli tayyorligi, mактабгача ta'limning Federal davlat ta'lim standartini amalga oshirishga nisbatan pedagogning subyektiv pozitsiyasi, pedagoglarning kasbiy malakasini oshirish, o'z kasbiy faoliyatida pedagogik aks ettirishni faollashtirish shu bilan birga pedagogning kasbiy faoliyatida o'zini-o'zi anglashi muhim hisoblanadi.

### FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YHATI:

1. Mактабгача ta'lim va tarbiyaning davlat standarti T.:2018.
2. “Ilk qadam” mактабгача ta'lim muassasasining davlat o'quv dasturi.– T.:2018.
3. O'zbekiston Respublikasi Mактабгача ta'limi vazirining 2019-yil 30-avgustdagи “Davlat mактабгача ta'lim tashkilotlari pedagoglarining ish hujjatlari to'g'risida”gi 155-sonli buyrug'i T.:2019
4. N.Sh.Abdullayeva .Tarbiyachi ish hujjatlari o'quv qo'llanma. – T.: 2021

5.O‘zbekiston Respublikasining “Maktabgacha ta’lim va tarbiya to‘g‘risida”gi Qonuni, O‘RQ-595-son, 16.12.2019y.

6. Maktabgacha ta’lim vazirining 2020-yil 26-oktyabrdagi “Maktabgacha ta’lim xodimlari asosiy lavozimlarining malaka tavsiflarini tasdiqlash to‘g‘risida” 173-sonli buyrug‘i.

7.F.R.Qodirova, M.Fayzullayeva, M.Rustamova, N.Abdullayeva, G.Berdialiyeva, M.Rizayeva “Maktabgacha yoshdagi bolalarning nutqini o‘stirish”. T.:2019-yil.

8.Fayzullayeva M.Z., Rustamova M.E., Abdullayeva N.Sh, Rizayeva X.U. “Maktabgacha ta’lim tashkilotlarida tarbiyachining ish hujjatlarini yuritish tartibi”. T.: 2020.

9..N.Sh.Abdullayeva. “Tarbiyachining ish hujjatlari” o‘quv qo‘llanma. T.: 2020.

10.M.Yuldashev, G.Omanova, M.Rustamova, M.Fayzullayeva, S.Rahimova, X.Rizayeva, D.Muhamedova “Maktabgacha ta’lim tashkilotlari tarbiyachilarining kasbiy mahoratini rivojlantirish” o‘quv qo‘llanma. T.: 2020.